



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

HUDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNING O‘SISH SUR‘ATLARI (FARG‘ONA VILOYATI MISOLIDA)

Madaminov Muxiddin Malikjon o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

e-mail: madaminovmuxiddin777@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg‘ona viloyati hududiy sanoat mahsulotining o‘shish suratlari (2020-y.) tahlil qilingan bo‘lib, hududlar kesimida sanoatning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqarish xususiyatlari statistik ma‘lumotlar asosida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: hududiy ishlab chiqarish, sanoat, mahsulot turi, ishlab chiqarish, hududiy xususiyat.

PICTURES OF GROWTH INDUSTRIAL PRODUCTION (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION)

Madaminov Mukhiddin

Annotation: This article analyzes the growth rates of regional industrial production in Fergana region (2020) and studies the production characteristics of the main industries by region on the basis of statistical data.

Key words: Regional production, industry, product type, production, regional feature.

Har bir hududning rivojlanishi va taraqqiy etishi ushbu hududning sanoat ishlab chiqarish salohiyati bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Hududlarda sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish jarayoni hududlardagi ma‘lum bir ixtisosliklarga bog‘liq holatda shakllanadi va taraqqiy etadi [1].

Farg‘ona viloyati bugungi kunda 19 ta hududga ajratiladi, shundan 4-ta shahar va 15-ta tumanlar mavjud bo‘lib sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlari bir biridan farq qiladi.


Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish viloyatda jami hajmda eng yuqori ulush (2020-yil) Farg‘ona va Qo‘qon shaxarlar xissasiga to‘g‘ri kelsa, tumanlar kesimida esa eng yuqori ulush Toshloq tumaniga tegishli. Keyingi o‘rinlarda Uchko‘prik, Bag‘dod hamda Quva tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida (1-jadval.) ancha yuqori darajada turadi.

1-jadval

Farg'ona viloyatida hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shaxar va tumanlar	2020- yil yanvar-iyun mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Farg'ona viloyati	9458.2	97.1
Bag'dod t	342.0	134.0
Beshariq t	221.0	107.5
Buvayda t	165.8	90.9
Dang'ara t	237.6	67.3
Farg'ona t	112.7	94.3
Furqat t	59.5	132.2
Oltiariq t	149.5	90.2
Qo'shtepa t	121.8	95.1
Quva t	292.4	96.9
Rishton t	138.8	73.9
So'x t	34.2	90.6
Toshloq t	1027.0	94.6
Uchko'prik t	461.0	171.4
Yozyovon t	64.9	75.7
O'zbekiston t	284.6	108.2
Farg'ona sh	3308.7	87.8
Qo'qon sh	1477.6	98.8
Quvasoy sh	542.8	100.4
Marg'ilon sh	416.3	100.2

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda Farg'ona viloyatining umumiy ishlab chiqarish salohiyati ham anchagina salmoqli ahamiyatga ega. Hududlardagi sanoat mahsulotlari turli hududlarda turlicha darajada ixtisoslikka ega ekanligini aytib o'tish mumkin. Ishlab chiqarishni sanoatga bo'g'liqlik darajasi ham hududlarda qay darajada rivojlanganligiga qarab aniqlash mumkin (1-rasm.).



1-rasm. Viloyat bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlar ulushi (jamiga nisbatan foizda)

Hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni tahlil qilinsa 2012-yil holatiga ko'ra eng yuqori ko'rsatkich bilan Farg'ona shahri (50.5%) ni ko'rish mumkin. Quvasoy shahar, Qo'qon shaharlari viloyatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi 2012-yil holatiga eng yuqori ekanligini bilish mumkin. Furqat, Yozyovon, Qo'shtepa va So'x tumanlari sanoat mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi bir foizga ham yetmaganligini ko'rish mumkin. Yillar davomida tahlil qilinsa 2015-yil Farg'ona viloyati sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmini 100% deb olinsa tumanlar ko'rinishida tahlilida shuni ko'rish mumkinki, Farg'ona shaharida 34.1%, Qo'qon shahari 13.9%, Quvasoy shahari 9.4% bilan viloyat tuman shaharlari ichida yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichiga ega ekanligini ko'rish mumkin bo'ladi. So'x tumani 1.1%. Furqat tumani 1.4%, Yozyovon tumani 1.4% ko'ratkich bilan eng past

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilganligi ko'rinadi. 2018-yil holatiga nisbatan olingan tahlillar esa yana Farg'ona, Qo'qon, Quvosay shaharlari viloyat darajadagi yuqori ekanligi, So'x, Furqat, Yozyovon tumanlari esa viloyatda eng ortda qolib borayotganini ko'rish mumkin. 2021-yil holatiga viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmida Uchko'prik tumani 17.0% bilan eng yuqori darajaga chiqib olganini ko'rish mumkin. Keyingi o'rinlarda Qo'qon shahri 15.8%, Farg'ona shahari 12.6% bilan keyingi o'rinlar bilan ishlab chiqarishni ko'rish mumkin. So'x tumani 0.7%, Yozyovon tumani 1.5%, Oltiariq tumani 1.6% bilan viloyatda eng past ko'rsatkich qayd etgan.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash sanoatida - 15 % ga va suv bilan ta'minlash, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 5,5 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda - 10,0 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 12 % ga o'sishi kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalaridan 9458,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 97,1 % ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat xissasiga to'g'ri kelib, uning jami ishlab chiqarishdagi ulushi (92,1 %) ni tashkil etdi [2].

O'tgan yilning mos davriga nisbatan chiqindi o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 29,0 % ga oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 1,1 % ga oshganlik kuzatildi, shuningdek, to'qimachilik chiqindilari - 3,2 % ga pasayish kuzatildi.

Ishlab chiqarishning tuman miqyosida yuksalishi hududning rivojlanishi borasida juda katta ahamiyatga ega. Qo'shimcha ish o'rinlarining yaratilishi bilan bog'liq hollarda turli hududlarning bandligini oshirish ham katta ahamiyatga ega [3, 34-b].

Sanoat mahsulotlarini hajmini ortishi va ishlab chiqarishni jadal sur'atda o'sib borishi o'z navbatida bir qancha ekologik muammolarni yuzaga keltiradi. U yoki bu turdagi sanoat tarmogi, ishlab chiqarish korxonasi faoliyatini shu kungi ekologik talablar asosida yaxshilash uchun, birinchi galda, amalda qo'llanilayotgan texnologik jarayonlar mexanizmi, chiqindi moddalar sodir bo'lishi sabab va omillarini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun, avvalambor, mutasaddi xodim va ishchilarning chuqur ekologik bilimligi katta ahamiyatga ega [4, 326-b].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5742-son farmoni.
2. Stat.uz (file:///C:/Users/PRESTIGE/Desktop/muhiddin/fargona/SN-PR-UZ-06-2020.pdf)
3. Nilufar K.Komilova, Ibragim X. Mamatkulov; The incidence of covid-19 in Uzbekistan geographical aspects. Eas J Dent Oral Med; Vol-3, Iss-2, (Mar-Apr, 2021): 31-37.
4. Roziqov.K. X, Negmatov.S.S, Sobirov.B.B “Atrof –muhit ekokimyosi” Toshkent 2012-yil 326-bet.
5. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2008.
6. Ziyonet.uz